

Kuz mavsumida "Navoiyazot» AJ da "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 122 000 dona ko'chat ekildi

// 03.12.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kuz-mavsumida-navoiyazot-aj-da-yashil-makon-umummilliy-loyih>



Mamlakatimizda har yili 200 million tup daraxt va buta ekib, yashillik miqyosini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish maqsad qilingan. So'nggi yillarda bu ko'rsatkich 12 foizga yetdi.

Bu jarayonda iqtisodiyot tarmoqlari, xususan sanoat korxonlarining faolligi ayniqsa, muhim. "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonlarida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2024-yil kuz mavsumida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Navoiyazot» AJga qarashli hududlar va Konimex tumanida daraxtlar, ko'chatlar, butalar ekish, parvarishlash, ularni sug'orish ishlari olib borildi.

"O'zkimyosanoat" AJ "Ekologiya va yashil iqtisodiyot" bo'limi boshlig'i Daniyar Niyazov tomonidan "Navoiyazot" AJda loyiha doirasida vazifalar ijrosi bo'yicha o'rganishlar o'tkazilib, tahlil qilindi. Unga ko'ra, joriy yil avgust-noyabr oylarida "Navoiyazot" AJ sanitar himoya hududida yerlar chiqindilardan tozalangan va ushbu yerlarga ko'kalamzorlashtirish maqsadida ishlov berilmoqda. Tayyorlangan **5,2 gektar** yerda o'zlashtirish ishlari olib borildi. **"Navoiyazot" AJ** xodimlarining sa'yi-harakati bilan **30 000** dona tut va qayrag'och ko'chatlari ekildi.

Konimex tumani hududida ham ko'kalamzorlashtirish maqsadida yangi yerlarni ochish chora-tadbiri amalga oshirilib, **10 ga** yerda agrotexnik tadbirlar olib borildi. Hududda **92 000** dona saksovul buta ko'chatlari ekildi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati